

## 5-6-SINF O'QUVCHILARINING YOZMA ISHLARIDA YO'L QO'YADIGAN XATOLIKLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

*Otajonova Madina - NDPI talabasi*  
*Xanmuratova Sayyora - NDPI talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ona tili darsida 5-6-sinf o'quvchilarining yozma ishlarida yo'l qo'yayotgan xatoliklari va ularni bartaraf qilish, o'quvchilarning orfografik bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan metodlar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** diktant, mini va makro diktantlar, imlo me'yorlari, unli va undosh tovushlar, jarangli va jarangsiz tovushlar, tutuq belgisi, qo'sh undoshlar.

Ma'lumki, DTS talablariga ko'ra o'quvchilarda fikrni yozma shaklda bayon etish malakasini hosil qilish ona tili ta'limining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Ona tili va adabiyot o'quv fanlari sifatida nutq imkoniyatlarini birlashtirib, o'quvchining fikr ifodalash malakalarini rivojlantiradi. O'quvchilar egallagan bilimlarini ya'ni yozma savodxonlikka qanchalik egaligini yozma ishlarni yozish jarayonida namoyon qiladilar. Barcha sinflarda o'quvchilarning yoshi va bilim saviyasini hisobga olgan holda yozma ishlardan foydalanish mumkin, 5-sinfda o'quvchilar ona tili, matematika, tabiatshunoslik, qadimgi dunyo tarixi, musiqa, tasviriy san'at kabi fanlarni o'rganadi, yozma ishlar ana shu o'rganilgan mavzularga oid bo'ladi. Xususan, 5-6-sinflarning shunga o'xshash yozma ishlarini kuzatganimizda quyidagi xatoliklarga ko'proq yo'l qo'yganligining guvohi bo'ldik:

1. "T" va "U" unllarini almashtirib yozilishi. Masalan, unut, urush, yumush so'zlarini unit, urish, yumish tarzida.
2. "A" va "O" unllari ishtirok etgan so'zlari yozishda. Masalan, somon, mabodo, fonetika, tonna so'zlarini samon, mobodo, fanetika, to'nna tarzda yozish holatlari.
3. "I" unlisining qo'shib yozilishi. Masalan, fikr, rasm, baxt so'zlarini fikir, rasim, baxit kabi tarzda.
4. Jarangli va jarangsiz so'zlarni yozishda. Masalan, kitob, daromad, farzand kabi so'zlarda jarangli harf o'rniga jarangsizini yozib qo'yish holatlari.
5. Bo'g'iz tovushi "H" va chuqur til orqa "X" tovushlarini yozishda almashtirib qo'llanilishi..
6. "Sh" harfi o'mida "Ch" tarzida talaffuz qilib va almashtirib yozish holatlari.
7. 6-sinf o'quvchilari orasida ravishdosh qo'shimchalari bo'lmish-gach, guncha, gancha, gani kabi qo'shimchalarini yozishda aytilishi qanday bo'lsa shunday yozishi.
8. Tutuq belgisi, qo'shtirnoqning qo'llanilishini ba'zi paytlarda bilmaslik holatlari.
9. Kelishik qo'shimchalarini ba'zi paytlarda almashtirib qo'llanilishi.
10. Qo'sh undosh ishlatilgan so'zlarni noto'g'ri yozish holatlari.

Yuqorida sanab o'tilgan holatlarni bartaraf etishga qaratilgan bir necha metodlar mavjud. Jumladan, "Yosh orfograflar" va "Izquvar o'quvchi" metodlari.

**"Izquvar o'quvchi"** Ushbu o'yinda o'quvchilar guruhlarda faoliyat olib boradi. Sinf doskasiga o'qituvchi bir nechta unli tovushlari tushirib qoldirilgan so'zlar yozilgan kartochkalarni olib qo'yadi. Masalan, z...ra, q...tiq...smon, q...yiq. Stolda esa bir nechta unli harflar yozilgan kichik kartochkalar turadi. Har bir guruhdan tayinlangan izquvar o'quvchi so'zda yetishmayotgan harfini topib, so'z hosil qilgach, qolgan guruh a'zolari mazkur harf haqidagi ma'lumotlarni aytadilar va guruh uchun bir ballga ega bo'ladilar. Boshqa guruhlarda variantlar bo'lsa, ko'rib chiqiladi va izohlanadi.

**"Yosh orfograflar"** o'yini unli va undosh tovushlarga bag'ishlangan mashg'ulotlarda qo'llaniladi. Jihozlar:

1. 5ta fonetik topshiriq yozilgan plakat.
2. 1-5 raqamlari yozilgan qog'oz bo'laklari.

O'yin avvalida har bir o'quvchi stol ustidagi qutichadan 1-5-gacha sonlar yozilgan qog'oz bo'laklaridan bittasini olib o'z guruhlarini va ularga beriladigan topshiriqlarni aniqlab oladilar. Shu tariqa 5 guruhga bo'linadilar. Keyin 5 ta topshiriq yozilgan plakatga o'z fonetik topshiriqlarining javoblarini yozadilar:

**1-fonetik topshiriq.** Tarkibida faqat jarangli undosh ishtirok etgan 10 ta so'z yozing.

**2-fonetik topshiriq.** "X" undoshi ishtirok etgan 10 ta so'z yozing.

**3-fonetik topshiriq.** "O" unlisi va "A" tarzida talaffuz qilinadigan so'zlarga 10ta so'z yozing.

**4-fonetik topshiriq.** Bo'g'iz undoshi ishtirok etgan 10 ta so'z yozing.

**5-fonetik topshiriq.** Tutuq belgisi qo'yilganda unli cho'ziq talaffuz qilinishiga 10 ta so'z yozing.

Topshiriqlarni qaysi guruh tez va to'g'ri bajarib bo'lsa o'sha guruh g'olib bo'ladi.

Yuqorida keltirib o'tilgan metodlar 5-6-sinflarning yozma ishlarini bexato yozishi, so'zlarning to'g'ri yozishga qaratilgan metodlar sanaladi. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, o'quvchilarning yozma ishlarni xatosiz yozishi uchun avvalo, dars jarayoni to'g'ri tashkil etilishi, dars vaqtida qo'llaniladigan metodlar, ko'rgazmali qurollar o'tilayotgan darsga mos ravishda tanlanishi va o'quvchilarning yoshi va bilim salohiyatiga mos topshiriqlar ishlab chiqilishi, har darsda 3-4 ta gapdan iborat mini-diktanlar olinishi maqsadga muvofiqdir. Chunki, o'qituvchi o'quvchilarning to'g'ri yozishiga e'tibor qaratmasa, ko'cha-ko'ydagi e'lonlar, do'kon, korxonalar nomlari xato yozilishda davom etadi. Bu esa millatni savodsiz etib qo'yadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madayev O. va boshqalar. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant. Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.
2. Tovushlar jilvasi. Til va adabiyot ta'limi. - Toshkent, 2018. - № 6.